

FRAZEOLOGIK BIRLIKLER TARJIMASI

Abdirasulova Umida Abdurizvon qizi

Termiz Davlat Universiteti talabasi

[*abdirasulovaumida6@gmail.com*](mailto:abdirasulovaumida6@gmail.com)

Annotatsiya: Mazkur maqola frazeologik birliklarning tarjimada berilishi va tarjimadagi o'ziga xosliklarni tahlil etishga bag'ishlangan. Maqolada berilgan iboralar tarjimasi va ularning o'ziga xos xususiyatlari turli misollar orqali tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: frazeologik birliliklar, frazeologik chatishmalar, frazeologik birikmalar , ekvivalent, leksikologiya,leksema.

ПЕРЕВОД ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ.

Аннотация: данная статья посвящена приведению фразеологических единиц в переводе и анализу особенностей перевода. Перевод фраз, приведенных в статье, и их отличительные особенности были проанализированы на различных примерах.

Ключевые слова: фразеологизмы, фразеологические спряжения, фразеологические сочетания , эквивалент, лексикология,лексема.

TRANSLATION OF PHRASEOLOGICAL UNITS.

Annotation: this article is devoted to the analysis of phraseological units in translation and specifics in translation. The translation of the phrases given in the article and their specifics are analyzed through various examples.

Keywords: phraseological units, phraseological crossovers, phraseological compounds , equivalent, lexicology,lexeme.

KIRISH

Avvalo frazeologik birliliklar tushunchasiga to'xtalib o'tsak: Frazeologik birliliklar deb tarkibiy tuzilishi va ma'no jihatdan ajralmas birikmalarga aytiladi.Frazeologik birliliklar nutqda erkin holda hosil bo'lmaydi, ular tilga tayyor holda kirib keladi. Tilning lug'at tarkibida faqat so'zlar emas, balki turg'un bo'lib

qolgan so'z birikmaları ham kiradi. Tarkibi ancha murakkab bo'lgan turg'un birikmalar frazeologizmlar yoki frazeologik birikmalar (iboralar) deb ataladi. Tilshunoslikning frazeologizmlarni ilmiy tadqiq qiluvchi sohasi frazeologiya (grekcha phrasis – "ibora", logos – "so'z" ma'nosida) deyiladi. Frazeologizmlar tilning leksikasiga kirishi sababli frazeologiyaga tilshunoslikning leksikologiya sohasiga kiruvchi bir bo'limi sifatida qaraladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

Ushbu maqolada ingliz tilidagi frazeologik birliklarni o'zbek tiliga tarjima qilish mavzusida tahlil olib boriladi va ko'rib chiqiladi.

NATIJA

Barchamizga ma'lumki ,ingliz va o'zbek tili turli xil oilaga mansub hisoblanadi.Har bir til o'zining grammatic tuzulishi ,leksemalari va ichki tuzulishiga ega .Ko'p hollarda frazeologik ibora va birikmalar qotib qolgan bo'ladi.Shu sababli fraziologik birliklar tarjima nazariyasi va amaliyotining eng murakkab masalalaridan biri hisoblanadi.Maqolada frazeologik birliklarning turlari haqida ma'lumot berildi va ularga misollar keltirildi.

MUHOKAMA

Har bir milliy tilda badiiy nutqning hissiy-ta'sirchanligi va obrazliligin yuzaga keltiruvchi shunday barqaror so'z birikmaları tez-tez uchrab turadiki, ularning paydo bo'lishi xalqlarning tabiat va jamiyatdagi narsa va voqeahodisalarga nisbatan qarashlari, munosabatlari bilan mustahkam bog'liqidir: odamlar narsa va hodisalar dunyosiga nisbatan o'z munosabatlarini obrazli, hissiy-ta'sirchan, hayajonli tarzda ifoda etish maqsadida turli-tuman muqoyasaga asoslangan lisoniy vositalardan foydalanadilar. Tasvirlanayotgan shaxs, narsa, xislat-xususiyat, voqeahodisa va tabiat manzaralari ko'pincha mubolag'ali tarzda kitobxonga yaxshi tanish obrazlar bilan muqoyasa qilinadi. Natijada tasvir yanada oydinlashadi, ifodaning obrazliligi oshadi, yuqori ta'sirchanlik va hissiy tuyg'u yuzaga keladi.Fraziologizmlar murakkabligi quyidagilarga bog'liq: birinchidan bir xil moddiy ma'noga ega bo'lgan so'zlar turli tillarda turlicha ma'no va stilistik funksiya (vazifa) larni bajaradi, ikkinchidan, bunday so'zlar turli tillarda turli

so'zlar bilan birikib keladi. Rus tilshunosi V.V.Vinogradovning umumiy tilshunoslik miqyosida e'tirof etilgan tasnifiga ko'ra frazeologizmlar uchta guruxda :

1. Frazeologik chatishmalar - bunday birikmalarning ko'chma ma'nosi ularning tarkibidagi so'zlarga bog'liq bo'lmaydi.

Cry wolf –bo'rttirib aytmoq

Top banana-lider

Kick the Bucket- vafot etmoq

Hit the roof-jahli chiqmoq

Cost an arm and a leg-qimmat

2. Frazeologik birikmalar bunday birikmalar ham ko'chma ma'noga ega, ammo ko'chma ma'no frazeologizmlar tarkibidagi so'zlarga bog'liq .

Miss the boat-poyezd o'tib ketdi

A picture is worth 1000 words-1000 marta eshitgandan bir marta ko'rghan yaxshi

Better late than never-hechdan ko'ra kech yaxshi

Kill two birds with one stone-bir o'q bilan 2 quyonni otmoq

Comparing apples to oranges-yer bilan osmoncha farqi bo'lmoq

3. Frazeologik birikuylar -bularda tarkibidagi so'zlarning ma'lum bir qismigina ko'chma ma'noga ega, birikmaning ma'nosi tarkibidagi so'zlarga bog'liq. Bular asosan ot bilan fe'lning birikuvi bo'lib, fe'l ko'chma ma'noda, ot to'g'ri ma'noda keladi. birliklarni ingliz tilida berish juda murakkab vazifa. "O'zining semantik boyligi obrazliligi va yorqinligi kuchi tufayli frazeologiya juda muhim rol o'ynaydi U nutqqa ifodalilik beradi. Ayniqsa frazeologizmlar og'zaki nutqqa, badiy adabiyotda va siyosiy adabiyotlarda keng qo'llaniladi.

Be all ears-hammasini eshitmoq

Dead letter –qora xat

Ekvivalentlar to'liq va qisman bo'lishi mumkin. To'liq ekvivalentlar shunday tayyor ekvivalentlarki ular o'zbek tilidagisi bilan ma'nosi, leksik tarkibi, obrazliligi, stilistik bo'yoqdorligi va grammatik tuzulishi bilan mos tushadi;

Qisman frazeologizm ekvivalentlarni tarjima qilishi u frazeologizmlarning ma’nosи va obrazliligini tarjimada qisman yoki to’liqsiz berish degan emas; bu atama ostida shu narsa nazarda tutilganki, taklif etilayotgan ingliz tilidagi ekvivalentlar o’zbek tilidagisi bilan biroz farqlanishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda tarjimon uchun ‘frazeologizm birlikni tarjima qilishda birinchi navbatda frazeologizmning obrazini berish muhim, uning til tuzulishini emas”.

Ikkinchi guruhga ma’nosи obrazlilik, leksik tarkibi va stilistik bo’yoqdorligi bilan mos tushuvchi lekin ba’zi formal belgilari, so’z tartibi, son kabilar, farq qiluvchi frazeologizmlar kiradi. Masalan. Uchunchi guruhga hamma belgilari mos tushadigan ammo obrazliliği mos tushmaydigan frazeologizmlar kiradi.

Ba’zida frazeologizmlarning farqli belgisi sifatida u yoki bu iboraning muloqatda, nutqda qo’llanilishi tezligi, chastotasi namoyon ki, bu qo’llanilayotgan frazeologiyani buzulishi so’zlovchining nutqiga noodatiy yoki xatto eski moda xarakterini berishi mumkin. Bu haqda tarjimon xech qachon unutmasligi lozim .

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki,tarjimon asliyat tilidagi frazeologik birikma va iboralarni tarjima adekvatligiga mos tarzda tarjima qilishi ,tarjimadagi g’alizlikni oldini olish uchun tarjima tilidagi muqobil variantiga to’liq rioya qilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1) Javliyev Mansurbek Odil o’g’li .Ochilova Shakhnoza Mamarajabovna. (2023). THE CONCEPTUAL STRUCTURE OF MODERN LINGUISTICS. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(12), 771–773. Retrieved from <https://www.eijmr.org/index.php/eijmr/article/view/839>
- 2) Nafisa, A. Using Stylistic Devices in Translation as an Example of the Story a Christmas Carol. *JournalNX*, 40-43.

- 3) Kizi, A. N. O. (2019). Lexical problems in rendering the story “A Christmas Carol” by Charles Dickens into uzbek. *ЕВРАЗИЙСКИЙ НАУЧНЫЙ*, 34.
- 4) Nabi, F., & Xudayqulov , A. (2024). GRAMMATICAL RULES OF PRINCIPLES OF ENGLISH TO DARI TRANSLATION. *Interpretation and Researches*, (8(30)). извлечено от <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/2459>
- 5) Aliboyeva, N. A. Q. (2022). The direct translation of roald dahl's novel “matilda” into Uzbek language. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(9), 77-80.
- 6) Safarova, D. A., & Khasanova, K. B. (2022). ENGLISH TOPONYM TRANSLATION METHODS IN RUSSIAN LANGUAGE. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(5), 37-40
- 7) Odil o'g'li, J. M. (2023). PHRASEOLOGICAL PROBLEMS OF TRANSLATION. TADQIQOTLAR, 28(2), 62-65.
- 8) ВИНОГРАДОВ В.В. ОБ ОСНОВНЫХ ТИПАХ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ // ВИНОГРАДОВ В.В. ЛЕКСИКОЛОГИЯ И ЛЕКСИКОГРАФИЯ: ИЗБР. ТР. - М.: НАУКА, 1986.
- 9) ВИНОГРАДОВ В.С. ВВЕДЕНИЕ В ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ. – М., 2001